$$Z = x + (h_1 + h_2)K \quad (18)$$

bu yerda x – yogin katlami, mm; h_1 – buglatuvchidagi birinchi kuzatish muddatidagi suv satxi; h_2 – buglatuvchidagi ikkinchi kuzatish muddatidagi suv satxi; K – ulchovchi trubaning graduirrovka koeffitsienti. Buglatuvchi GGI-3000 suv xavzasining kirgogida va maxsus jixozlangan solda urnatilishi mumkin.

Buglatuvchi asbobning tuzilishi va unga esayotgan shamolning taʼsirini eʼtiborga olganda Rossiyada namuna /etalon/ sifatida maydoni 20m², chukurligi esa 2 m teng buglatuvchi xavza kabul etilgan.

Buglanishning urtacha kup yillik miqdori Z_{20} bevosita kuzatish maʼlumotlarining urtacha arifmetik kiymatidan xisoblanadi. Agar kuzatish maʼlumotlari bulmagan takdirda urtacha kup yillik buglanish izo chiziklari kartasidan olinadi (G.V.Jeleznikov va b.Gidrologiya, gidrometriya i regulirovanie stoka, 169 b)

Bu xaritada buglanishning yil davomida taksimlanishi SSJI xududi buyicha 8 ta mintakaga bulingan. Xar bir mintaka uchun umumiy yigindidan foiz xisobida urtacha oylik buglanish mikdori xosil etilgan. Urta Osiyoni U-Ush mintakada joylashganini eʼtiborga olib tuzilgan jadvalni kiskartirib beramiz.

Kichik xavzalar yuzasidan buladigan buglanish. %

Mintaka	O Y L A R											
	01	02	03	04	05	06	07	08	09	10	11	12

V				6	14	20	21	19	12	6	2	-
VI			3	6	13	17	20	19	13	7	2	-
VII		1	4	7	13	16	19	17	12	7	3	1
VIII	2	3	4	7	12	15	16	16	12	7	4	2

Urganilayotgan xavzaning kaysi mintakaga kirishini xaritadan bilib, topilgan buglanish mikdorini 1-jadval asosida oylarga taksimlash mumkin. Buglanishning xisobli ta'minlanganligi (Z_x)

$$Z_x = K \cdot Z_0 \text{ га тең,} \quad (19)$$

Bu yerda: Z_0 – buglanish me'yori, K – ta'minlanganlik egri chizigini ordinatasi bulib, bu buglanishning uzgaruvchanlik koeffitsienti C_v va asimmetriya koeffitsienti C_s buyicha aniklanadi.

Urtasi Osiyo uchun buglanishning $C_v = 0,10$; C_s – esa nulgaga teng deb olinadi. Urtacha maydonli $5-40 \text{ km}^2$ xavzalardan buglanish buyicha kuzatish ma'lumotlari bulmagan takdirde empirik formulalardan foydalaniladi. Buglanishni xisoblash formulasi quyidagicha:

$$Z = 0,14 \cdot n (e_0 - e_{200}) (1 + 0,72 U_{200}), \quad (20)$$

Bu yerda Z – buglanish; e_0 – suv bugining urtacha maksimal bosimi bulib, u suv yuzasining xarorati buyicha xisoblanadi. e_{200} – suv xavzasidan 200 sm yuqoridagi suv bugining urtacha bosimi. Suv xavzasidan 200 sm yuqoridagi shamolning urtacha tezligi, m/s; n – xisobli davrda kunlar soni.

Urtacha kup yillik meteorologik kiymatlar asosida, formula buyicha, urtacha, oylik buglanish Z oy xisoblanadi. Oylik buglanishni yigsak, fasllar /yil/ uchun buglanish me'yorini xosil kilamiz.

Anik yil uchun buglanishni xisoblash yuqorida kursatilganday olib boriladi, fakat shu yilning meteorologik ma'lumotlari olinadi.

Katta kul va suv omborlaridan buladigan buglanishni formula yordamida xisoblanadi.

Qor ustidan buladigan buglanishni quyidagi formula bilan xisoblash mumkin.

$$Z_{kop} = (0,18 + 0,10 U_{1000}) (e_n - e_{200}) \cdot 0,1 \quad (21)$$

bu yerda: Z_{kop} – buglanish, m/sut; e_n – qorning xarorati asosida xisoblangan suvning maksimal tarangligi; e_{200} – 20 sm.baland balandlikdagi suv bugining tarangligi; U_{200} – flyuger balandligidagi shamolning tezligi, m/s.

Yer ustidan buladigan buglanishni oylik yoki undan uzok muddat uchun soddalashtirilgan formula ishlatiladi:

$$Z_{kop} = 0,37 n d_{200}$$

bu yerda Z_{kop} – oylik buglanish, m; d_{200} – balandlikdagi xavo namligining kamchiligi; n – xisobli davr ichida kunlar soni.

4.3. Tuprok va usimliklardan buladigan buglanish.

Tuprok ustidan buladigan buglanish suv ustidan buladigan buglanishga ta'sir etuvchi omillar ta'sir kursatadi. Bulardan tashkari bu yerda tuprokning namligi muxim ahamiyatga ega.

Yomgir yokkan davrda tuprok ustidan buladigan buglanish xuddi suv ustidan bulayotgan buglanishdek buladi. Yomgir yogmagan paytda tuprok yuzasidan pastdagi yer osti suvlar yuzasidan buglanish buladi.

Tuprok katlamining kurib borishi bilan tuprokdan buladigan buglanish kamayib ketadi.

Tuprokdan buladigan buglanish tuproknı buglatgichlar yordamida ulchanadi. Usulning mohiyati shundan iboratki, kuzatish muddatlari orasida tuproknı buglatgich ichiga urnatilgan monolit /bir butun/ ogirliğı ulchanadi. Shu bilan birga monolit ustiga yokkan yogin va u orkali utgan okim mikdori xisobga olinadi.

Tuprok buglatgich stantsiyalarda tuprokli buglatgich GTI-500-50 maydoni 500 sm², balandliğı 50 sm. va GTI-500-100 – maydoni 500 sm² balandliğı 100 sm/ dan foydalaniladi.

Bundan tashkari GTIning Valdiy filialida V.A.Urivaev tomonidan kashf etilgan katta modeli gidravlik buglatgich urnatilgan. Bu yerda fakatgina buglanish ulchanmasdan, balki suv balansining barcha tarkiblari ustidan kuzatish ishlari olib boriladi.

Usimliklar ustidan buladigan buglanishga transpiratsiya va daraxt barglari va tanasida ushlanib kolgan yoginning buglanishi kiradi.

Usimliklar transpiratsiyasining fiziologik mohiyati shundaki, usimlik namlikni tuprokdan olib, uni tukimalarining usishiga sarflaydi, ortikchasini esa bug xolatida barglar orkali atmosferaga ajratadi.

lg. kuruk modda xosil kilish uchun usimlik uzi orkali utkazishi lozim bulgan suv mikdoriga transpiratsiya koeffitsienti deb ataladi. U usimlikni turiga boglik bulib, keng mikiyosda uzgarib turadi.

Transpiratsiya mikdori tuprokli buglatgichlarda ulchanadi.

Yigindi buglanishga transpiratsiya, tuprok va suv yuzasidan buladigan buglanish kiradi. Gidrologik va suv xujaligi xisoblarda, meliorativ xisoblashda yigindi buglanishning me'yorini va uning oylar buyicha taksimlanishini bilish kerak.

Kuruklik ustidan buladigan buglanishni xisoblash buyicha tavsiyalarga muvofik /A: Gidrometeoizdat, 1976/ buglanish me'yori suv balansi usuli, suv – issiklik balansi usuli va girdobli shimilish /turbulentnaya diffuziya/ usuli bilan meteorologik stantsiyalar ma'lumotlari asosida aniklanadi.

Suv balansi usuli. Daryo xavzasining suv balansi teng lamasidan kup yillik davr uchun yillik yigindi buglanish me'yori Z_0 yogin mikdori x_0 dan okim me'yorining ayirmasiga teng.

$$Z_0 = x_0 - y_0$$

/24/ tenglamasi asosida GTI yigindi buglanish yillik me'yorining izo chiziklar xaritasi tuzilgan. Bu xaritadan katta maydonlar /6000-7000 km²/ uchun urtacha kup yillik buglanish topiladi. Buglanishni togli joylarga uchun xisoblaganda, yul kuyilgan xato 20% ga yetishi mumkin.

Sugoriladigan joylardan buladigan buglanishni A.M.Alpatev va S.M.Alpatev tomonidan ishlab chikarilgan bioiklimiy usul bilan xisoblanadi. Bu usul kishlok xujalik usimliklarining biologik xususiyatlarini va tuprokning kam nam sharoitlarda kullaniladi.

Buglanishni bioiklimiy usulda xisoblaganda kuyidagi formulada foydalaniladi:

$$Z = a \sum d_{200}$$

Bu yerda $\sum d_{200}$ - urtacha sutkalik xavo namligining kamchiligining yigindisi; a – usimlikning turiga boglik bulgan buglanishning biologik koeffitsienti.

4.4.Yoginlar

Xavoda suv buglari mikdori tuyinish darajasiga yetmaguncha bug xolatida kolaveradi. Xavoning tuyinish muddati xaroratning kamayishi bilan kiskaradi. Suv bugining suyuk yoki kattik xolatiga utishi kondensatsiya deb ataladi. Yoginlar yomgir, qor, kirov va dul kurinishida yogadi. Bundan tashkari suv buglari tuyinib, yer ustiga shudring xolida xam tushishi mumkin.

Yoginning asosiy kismi /99%/ yomgir va qorni tashkil etadi. Kuruklik ustida yoginning taksimlanishiga joyning ummondan uzokligiga, joy relefi va usimlik katlamiga boglik. Ummondan uzoklashgan sari, yogin mikdori kamayadi. Misol uchun Ovrupo kismining garbiy joylarida yogin urtacha 700 mm bulsa, Urta Osiyoning tekislik joylarida yogin bor-yugi 100-150 mmni tashkil etadi.

Yoginga relefning ta'siri shundaki, joyning balandligi oshishi bilan yogin mikdori oshadi.

Yogin mikdori asosan V.D.Tretyakov yogin ulchovchi asbobi bilan aniklanadi.

Katta mikdorda yogadigan va qor kurinishida yogadigan kishki yoginning gidrologik jarayonlarda axamiyati katta. Qor katlamining asosiy xususiyatlariga uning saklanish vaktining davomiyligi, kalinligi, qorning zichligi va qorda suvning kanchalik yigilgani kiradi. Qordagi suv mikdorini aniklash uchun daryo xavzasida bir vaktning uzida qorni ulchash ishlari olib boriladi.

Daryo xavzasida urtacha yogin mikdori meteorologik stantsiyalardagi kuzatish ma'lumotlari asosida aniklanadi.

Meteostantsiyalarning joylanishining zichligi va yogin katlamining talab etilgan ulchash anikligiga krab urnatilayotgan xavzaning yogin mikdori izogient, kvadratlar, ulchangan maydonlaryoki urtacha arifmetik usullar bilan aniklanadi.

Izogient /teng yoginlar chizigi/ usuli xavza xaritasiga barcha meteorologik stantsiyalarni va ulardagi yogin mikdori tushiriladi. Bu ma'lumotlar asosida izogientlar utkaziladi. Planimer bilan xavzadagi izogient orasidagi maydon W_i aniklanadi va interpolyatsiya yordamida ikki kushni izogient orasidagi maydonchasining ogirlik markazida yogin mikdori x_i belgilanadi. Izogientlar bab-baravar taksimlanganda ikki izogient orasidagi yogin mikdorining yarim yigindisi sifatida kabul kilish mumkin.

Butun xavza uchun urtacha yogin mikdorini urtacha ulchangan mikdori sifatida topiladi.

$$x = \frac{x_1 W_1 + x_2 W_2 + \dots + x_n W_n}{W_1 + W_2 + \dots + W_n} = \frac{\sum_1^n x_i W_i}{\sum W_i}$$

Izogient usuli yogin mikdorini batafsil xisoblaganda stantsiya tarmoklarining yetarli bulgani takdirda kulaniladi.

Kvadratlar usulida xavza maydoni katta-kichikligi bir xil maydonga bulinadi. Xar bir kvadrat uchun urtacha arifmetik yogin mikdori shu maydondagi stantsiya ma'lumoti asosida xisoblanadi. Agarda biror kvadratda stantsiya bulmasa, yogin kushni kvadratlardagi ma'lumotlarni interpoliyatsiya kilish yuli bilan topiladi. Topilgan yogin mikdorlari kvadrat markaziga kuchiriladi va yoziladi. Xamma kvadratlarning yogin mikdorini jamlab, xosil bulgan sonni kvadratlar soniga bulsak, butun xavza uchun yogin katlami kelib chikadi.

Urtacha arifmetik usul eng oddiy bulib, xududning relefi tekis va meteostantsiyalar tarmogi yetarli bulgan takdirda va asosan dastlabki xisoblarda ishlatiladi. Bu usulda yogin xavza ichida joylashgan stantsiyalar buyicha ma'lumotlar jamlani, xosil bulgan yigindini stantsiyalar soniga bulinadi.

5.Daryolarning tuyinishi va suv tartibi /rejimi/.

5.1.Daryolarning tuyinish turlari.

Yer kurrasidagi barcha daryolarning tuyinish manbai atmosferaik yoginlardir. Yoginlarning esa kanday xolatda bulishi, kaerga va kancha yokkaniga karab ular daryolarning tuyinishida turlicha katnashadi. Shu sababli daryolarning beshta tuyinish manbai mavjud. Ular – yomgirlar, mavsumiy qor katlami, toglardagi bulturqi qor /firn va qorliklar/, muzliklar va yer osti suvlari.

Daryo suvlari nimadan yoki kanday manbalar xisobiga xosil buladi – uni urganish xam nazariy, xam amaliy jixatdan juda xam katta axamiyatga ega. Chunki xar bir tuyinish manbai daryo okimining xosil bulish jarayonlariga va ayniksa uning rejimiga katta ta'sir kursatadi.

Yillik okim mikdori, uning yil davomida va u yildan bu yilga uzgarishi, shuningdek, daryo suvlarining loykalik darajasi, xarorat rejimi, muzlash xodisalari va ximiyaviy tarkibi kabi gidrologik rejimining bir kator elementlari xam kup jixatdan tuyinish manbalariga boglik buladi.

Daryolarning qor suvlari bilan tuyinishida kish oylarida yigilgan mavsumiy qorlarning baxor oylarida erishi sabab buladi. Rossiyaning Ovrupo kismidagi pasttekislik daryolarining kupchiligida yillik okimning 50 foizini baxorgi suv tulin davriga tugri keladi.

Daryolarning yomgir suvlaridan tuyinishi kuchli yomgir va jala tufayli buladi. Yomgir suvlari bilan tuyinuvchi daryolar Kavkaz orti, Qora dengizining shimoliy soxilidagi, Krimda va Sharkiy Sibirda joylashgan.

Muzlik – qor suvlaridan tuyinuvchi daryolar asosan togli joylardagi va bulturqi qor /firi/ ning erishidan xosil buladi. Yer osti suvlari bilan tuyinuvchi daryolar okimi yil davomida kam uzgaradi. Yer osti suvlari bilan barcha daryolar xar turli

mikdorda tuyinishadi. Volga daryosi uchun bu mikdor 30 foizni tashkil etsa, baʼzibir kichik daryolarda 60 foizga yetishi mumkin.

Kupchilik daryolarda aralash turli tuyinish manbalari uchraydi. Atokli rus iklimshunosi A.I.Voeykov 1884 yilda Urta Osiyoning barcha daryolarini toglardagi qorlarning erishi xisobiga tuyinadigan daryolar jumlasiga kiritgan edi.

Xakikatdan xam Urta Osiyo daryolarining asosiy tuyinish manbai toglarga tuplanib koladigan qorlardir. Toglar kancha baland bulsa, qorning kup yogishi va uning issik xavo kelgunga kadar saklanib turishi uchun shuncha kulay sharoit mavjud buladi.

Toglarda qorning erishi xamma joyda bir vaktida boshlanmaydi: u dastlab toglarning eng pastki kismida va sungra balandrok joylarida eriy boshlaydi. Shu bilan qor xar xil balandlikda xar xil vakt ichida eriydi. Erigan qor suvlari daryolar uzaniga okib tushadi. Yilning ilik davri davomida erib kamaygan yoki tugagan qor katlamlari va qorliklar urni kuz va kishda yangidan yokkan qorlar bilan tula boradi. Toglarning juda baland bulgan kismilarida xavo xarorati goyat kiska vakt davomidagina nuldan yuqori buladi yoki bulmasa doimo nuldan past buladi.

Ana shunday buland joylarda deyarli butun yil davomida fakatgina qor yogadi.

Baland toglarda tuplanib kolgan qorlar kismangina eridi, chunki ularning tamomila erib tugashi uchun issiklik energiyasi va ilik kunlar yetishmaydi. Qorlarning erib ulgura olmagan kismi vakt utishi bilan katta-katta massalarga ajralib, tog yonbagirlardan chukur joylarga kulab tushadi va qorliklarni vujudga keltiradi yoki ustki qor katlami bosimi natijasida muzliklarga aylanadi.

Muzliklar asta-sekin vodiylar buylab pastga siljib turadi. Muzliklar iyun, sentyabr oylari erib, kupchilik daryolarimiz ulardan boshlanadi.

Muzliklardan xosil buladigan suv mikdori daryo suvi yigilish maydonining absolyut balandligiga unga yokkan yogin mikdoriga tog tizmalari yonbagirlarining orientatsiyasi va relef xususiyatlariga boglik buladi.

Urta Osiyo gidrologiyasining asoschisi V.L.SHults tadkikot va xisoblariga karaganda Urta Osiyo daryolarining tuyinishida muzlik suvlarining xissasi katta emas. Xatto eng baland toglarda boshlanadigan va xavzasida muzliklar eng kup bulagan Mastgox, Sux, Vaxsh va Zarafshon kabi daryolarda xam muzlik suvlari shu daryolarning toglikdan chikaverish joylaridagi yillik okimlarining 25-30 foizidan ortik bulmagan kisini tashkil etadi.

Baland toglarning pastrok joylaridan yoki pastrok toglaridan boshlanadigan daryolarning xavzalarida muzliklar juda kam yoki tamomila yuk. Shuning uchun xam bunday daryolarning tuyinishida muzlik suvlari xissasi goyatda kichik buladi yoki umuman bulmaydi.

Urta Osiyo daryolarining umumiy okimida muzlik suvlarning xissasiga kelganda shuni aytilish kerakki, u 10 foizdan oshmaydi, xatto muzliklarning firn kismilari yuzasidagi qorlarning erishidan xosil bulgan suvlarning kushib xisoblaganda xam u 15 foizga yetmaydi.

5.2.Suv rejimi davr /faza/ lari.

Daryolar rejimida tuyinish sharoitlariga kura suv tulin davri suv toshkin va suv kam davrlarga bulinadi.

Suv tulin davri – daryo suv rejimining fazasibulib, muayyan iklimi sharoitda daryo sersuv suv satxi uzok muddatda nixoyatda baland kuzatiladi. U past tekislik daryolarda baxorgi qor /baxorgi suv toshkini / toglarda mavsumiy qor va muzliklarining erishi /yozgi suv toshkini / va mussonli tropik mintakalarda uzok muddatli yomgirlarning yogishi natijasida xosil buladi.

Uzok Shark daryolardagi yozgi suv toshkini daryo suv rejimining fazasi bulib, u xar turli fasllarda jala yokkanda va mavsumiy xollarni tezqor erish payti kuzatiladi. Kupgina talafotlar keltiradi. Suv kam davri kuprok kish oylariga tugri keladi unda kupchilik daryolar muzlab koladi.

5.3. Daryolarni tuyinish manbalari buyicha tasnifi.

Bundan tasnif daryolar uchun birinchi bor Lvovich tomonidan tuzilgan.

Tuyinish manbalar – qor katlami s, yomgir suvlari Δ va yer osti suvlari G ning mikdoriy baxolashda M.I.Lvovich tomonidan kuyidagi gradatsiya /bokich / beriladi: 80 dan kup , 50-80 va 50 foizdan kam. Muzliklarning tuyinishning uziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, ular uchun aloxida gradatsiya berilgan 50 dan kup, 25-50 va 25 foizdan kam. Agar daryo yillik okimining 80 foizdan kuprogi uchta manbadan biriga tugri kelsa, unda Lvovich buyicha daryo, yo qor, yo yomgir va yoki yer osti suvlari bilan tuyinadi deb xisoblanadi.

Agar tuyinish manbalari birining okimidagi salmogi 50-80 foiz bulsa, daryo kuprok qor kuprok yomgir yoki bulmasa kuproker osti suvlari bilan tuyinuvchi turiga kiritilgan va nixoyat daryo okimida uchta tuyinish manbalaridan birining salmogi 50 foizdan kam bulsa, bu daryo aralash turga kiritilgan.

Daryo tuyinish manbalariga karab joylashishi ma'lum konuniyatlarga bulinadi. Mamlakatimizning kupgina daryo xavzalari qor suvlari, kuprok qor suvlari va aralash bulsada, unda qor suvlari ulushi kuprok bulgan tuyinishga ega.

Urta Osiyo daryolarining umumiy tuyinishida qor suvlari boshka manbalarga nisbatan ustun tursada, birok qor suvlari va shuningdek, boshka xil manbalari muzlik, yomgir va yer osti suvlarining yillik okimdagi salmogi turli daryolarda turli buladi.

Boshkacha kilib aytganda tuyinish sharoitlari xar xil daryolar uchun xar turlidir. Shuning uchun xam, asosan yer osti suvlari bilan tuyinadigan kichik daryolarni mustasno kilganda, Urta Osiyo daryolarini ularning tuyinish xarakteriga karab kuyidagi turt turga bulish mumkin:

1. Muzlik – qor suvlaridan tuyinadigan daryolar.
2. Qor – muzlik suvlaridan tuyinadigan daryolar.
3. Qor – suvlaridan tuyinadigan daryolar.
4. Qor – yomgir suvlaridan tuyinadigan daryolar.

Bunda daryolarning kaysi turiga kirishini kursatuvchi mezonlar sifatida qor-muzlik suvlaridan xosil bulagi yozgi tulin suv davridagi okim mikdori W_{VII-IX} shuningdek, bu okim mikdorining qor suvlaridan xosil bulgan baxorgi toshkin suv davridagi okim mikdori W_{III-VI} ga bulgan nisbati $\delta = W_{VII-IX} : W_{III-VI}$ olinadi. Mezonlar δ va W_{VII-IX} lar daryoning tuyinish sharoitlarini ancha yaxshi kursatib bera olishi mumkin (2-jadval).

Daryolarning tuyinish xususiyatlariga kura kaysi turga kirishini kursatuvchi mezonlar

Daryolarning turlari	Daryolarning kaysi turga kirishini kursatuvchi mezonlar		
	$\delta = \frac{W_{VII-IX}}{W_{III-VI}}$	W _{VIII-IX} yillik okimga nisbatan % xisobida	Suv eng kup buladigan oylar
Muzlik – qor suvlaridan tuyinadigan daryolar	1,00	38	VII, VIII
Qor – muzlik suvlaridan tuyinuvchi daryolar	0,99-0,26	40-17	V, VI
Qor suvlaridan tuyinadigan daryolar	0,27-0,18	16-12	IV, V
Qor – yomgir suvlaridan tuyinadigan daryolar	0,17-0,00	13-0	III, IV, V

Umuman, shuni yodda tutmok kerakki, tog daryolarining tuyinish jixatidan kaysi turga kirishi shu daryolarning ma‘lum bir kuzatish joyiga nisbatangina aniklanadi. Chunki, tog daryolarining tuyinish sharoitlari ularning kuyi okimi tamom uzgarib boradi.

Daryolarning tuyinish sharoitlari u yildan bu yilga uzgarib turishi xam mumkin, bu esa ayrim yillarning iklmiiy sharoitlariga boglik.

Endi daryolarning xar kaysi tuyinish turlarini ayrim-ayrim kiskacha kurib chikaylik.

Birinchi turdagi daryolarning tuyinishida baland toglarning bulturqi qor /firn/ va muzliklarning erishidan xosil bulgan suvlar eng kup ishtirok etadilar. Birok, muzliklarga yakin bulgan joylar e‘tiborga olinmasa, bu turdagi daryolarning tuyinishida muzlik suvlarning mikdori xar xolda qor suvlari mikdoridan kam buladi. /yillik okimning 25-30 foiz kismini tashkil etadi/.

Ikkinchi turdagi daryolar okimi kuprok mavsumiy qor va kuprok mikdorda bulturqi qorlarning erishi xisobiga xosil buladi: muzlik suvlarining xissasi ancha kam – yillik okimning 15 foizigacha bulgan kismini tashkil etadi.

Uchinchi turdagi daryolarning suv yigilishi maydonlari ancha pastda bulib, asosan mavsumiy qor va qorliklar xisobiga tuyinadi; mangu qor va ayniksa muzlik suvlarining xissasi juda kam.

Turtinchi tur daryolarning tuyinishida baland tog qorlari va muzliklar deyarli yoki butunlay ishtirok etmaydi, lekin yomgir suvlari boshka tur daryolaridagiga nisbatan xar xolda eng katta rol uynaydi.

5.4.Daryolar okimining fasllar buyicha taksimlanishi tasnifi.

Daryolarga kushilayotgan suv mikdori yil davomida xar turli bulib, uzgarib turadi. Okimning yil davomida taksimlanishiga birinchi navbatda iklmiiy omillar – yogin va xavo xarorati ta‘sir kursatadi. Bu omillar xar turli yillarda kam mikdorda

uzgarsa-da, ular okimning yil davomida uzgarib turishini belgilaydi. Bulardan tashkari okimning taksimlanishiga xavza ulchovi, uning reliefi, geologik tuzilishi, urmon, kul va botkokliklarning mavjudligi va insonning xujalik faoliyati ta'sir kursatadi.

Yer kurrasi daryolarining iqlimiy tasnifi tanikli sovet iqlimshunosi A.I.Voekov tomonidan birinchi bulib, tuzilgan. Unda tuyinishi manbalarining taksimlanishiga karab suv tulin davrning boshlanish vakti kursatilgan. Ammo Voekov tasnifida daryo suvligining yil davomida taksimlanishi xisobga olinmagan.

Keyinchalik sovet tadkikotlaridan B.D.Zaykov, M.I.Lvovich va b.okimning yil davomida taksimlanishida okim gidrografini asos kilib olishdi.

B.D,Zaykov barcha daryolarni uchta asosiy turga buladi: baxorgi suv tulin davri, yilning issik davridagi suv tulinligi va suv toshkini rejimidagi daryolar.

Baxorgi suv tulinligiga ega bulgan daryolar mavjud. Ular okimining xususiyatlari va mikdoriga karab yana 5 turga bulinadi. Ularga Kozogiston, Sharkiy Ovrupo, Garbiy Sibir, Oltoy turli kiradi.

Yilning issik davrida suv tulinligi kuzatilishiga karab daryolar ikki turga bulinadilar. Ularga Uzok Shark va Tyanshan turlari kiradi. (8-rasm)

Suv toshkini rejimiga ega bulgan daryolar toshkinning yil davomida taksimlanishiga karab uch turga bulinadi. Ularga Qora dengiz buyi, Krim va Shimoliy Kavkaz turlari kiradi.

Qayd etilgan daryolarning unta turidan fakatgina asosiylarini rejimini urganish e'tiborga olinadi.

6.TADQIQOTLARNING STATISTIK USULLARI VA OQIMNI XISOBLASH.

6.1.Gidrologiyada statistik usullarning kullanilishini asoslash.

Extimollik nazariyasiga asoslangan matematik statistika usullari gidrologik xodisalarni tadkikot etishda va kuprok okimni xisoblashda keng foydalaniladi.

Okimni xisoblashdan asosiy maksad kelajakda loyixada muljallangan choralarni amalga oshirishda kuzatishi mumkin bulgan okimni ifodalovchi ma'lumotlarni olishdir. Bunday prognozga /bashorat/ okim tugrisidagi ma'lumotlar va utgan davr uchun uni ifodalovchi omillar asos bula oladi. Okim buyicha uzok muddatli bevosita ulchangan ma'lumotlarga ega bulib, okimni keltirib chikargan xodisalarning rivojlanish xodisalariga rivojlanish konuniyatlari asoslangan xolda yetarli darajadagi extimollikka ega bulgan okim tavsiflarini xisoblash mumkin.

Gidrologik xodisalar va jarayonlar kup xollarda kup omildir, ya'ni kup sonli omillarning ta'siri yakunidir: uz navbatida urganilayotgan xodisalarni paydo bulishiga ularning xar biriga ta'sirini inobatga olish mumkin bulmayapti, Misol uchun, yillik okim uz navbatida yillik, utgan gidrologik yilning kishgi davri, shu gidrologik yilning baxor-yoz oylaridagi yoginga, xavzadagi xavo xaroratiga namlikning yigilishiga va boglik. Bu omillarning xar biri uz navbatida bir kator omillar, masalan, radiatsiya balansi, atmosfera bilan issiklik almashishi, xavo

masalalarining tsirkulyariyasi ta'ziridadir. Yuqorida kayd etilgan xol okimning boshka tavsiflari- maksimal minimal va b. kiymatlariga xam tegishlidir.

Kupomillik boglanish tufayli paydo bulgan xodisalar yigindisiga taalukli konuniyatlarni fakatgina statisik usullar yordamida aniklasa buladi.

Gidrologiyada statistik konuniyatlarni tadbik etish gidrologik rejim tavsiflarini /maksimal, minimal yoki yillik suv sarfi, yogin va b./ tasodifiy mikdorlar yigindisi deb karashga asoslangan. Ma'lum bir mikdorning kiymati shunda tasodifiy deb ataladiki, agarda bu kiymatning paydo bulish tartibi ushbu mikdorning avval uchragan kiymatlariga boglik bulmasa.

Gidrologik katorlarning tasodifiy mikdorlar yigindisi deb karashning nazariy asosi bulib extimollik nazariy asosi bulib extimollik nazariyasining chegarali /predelni/ teoremlari xizmat kiladi.

Bu teoremlarning asosiy xolatlar katta sonlar konuniga boglik bulib, bir xil xodisalar kup kaytarilganda ularning urtacha kiymati umuman tasodifiy bulmay koladi va katta aniklik bilan oldindan aytib berilishi mumkin. Tasodifiy xodisalarining xususiyati gidrologik katorlarda anik namoyon buladi. Kupgina gidrologik xodisalar bu xolatni kanoatlantiradi deb karash kerak.

6.2. Ta'minlanganlikning gidrologik tavsiflari.

Emperik ta'minlanganlik formulalari.

Gidrologiya tavsiflarining ta'minlanganligi – ularning boshka xar kandy mikdorlaridan oshib ketish extimolidir.

Agar gidrologik mikdorlar katorini kamayib ketish tartibida joylashtirsak, katorda joyni egallagan mikdorning oshib ketishini yoki ta'minlanganligini extimolini kuyidagi formula bilan ifodalasa buladi:

$$P = \frac{m}{n} 100\% \quad (26)$$

Maksimal suv sarflari empirik ta'minlanganligini xisoblash uchun S.N.Kritskiy va M.F.Menkel kuyidagi formula taklif etadi:

$$P = (m/n+1) \cdot 100 \% \quad (27)$$

N.N.CHegodaev urtacha bir yillik suv sarfi empirik ta'minlanganligini xisoblash formulasini ishlab chikdi.

$$P = (m - 0,3)/(n+0,4) \cdot 100 \% \quad (28)$$

Yuqorida keltirilgan formulalarda m – kamayib ketishi tartibidagi katorning tartib rakami, n – katoridagi a'zolar soni /kuzatish yillar soni/

Ta'minlanganlikning urtacha mikdolari uchun bu formulalar bir-biriga yakin natijalar beradi. Ta'minlanganlikning kichik kiymatlarida Kritskiy va Menkel formulasi CHegodaev formulasiga nisbatan empirik ta'minlanganlikning yuqorirok natijalarini beradi.

SHu munosabat bilan maksimal suv sarfining empirik ta'minlanganlikning xisoblashda 27-formula bilan xisoblashni tavsiya etilib, past ta'minlanganlikdagi maksimal okimni aniklashda kuprok kulaylik keltiradi. Yillik va minimal okim tadkikotlarida esa 28-formuladan foydalanib tavsiya etiladi.

Gidrologik ma'olumlarning empirik ta'minlanganligini bilib, uning yillar davomida extimolini xisoblab chiksa buladi.

Gidrologik mikdorning kaytarilishi deb, shunday yillar soni N ga aytiladiki, bu davrda bu mikdor urtacha bir marta uchrab turadi. Ta'minlanganlik P va takrorlanib turishlik N uzaro kuyidagicha boglangan:

$$P < 50\% \text{ da } N = \frac{100}{P} \quad (29) \quad P > 50\% \text{ da } N = \frac{100}{100 - P} \quad (30)$$


Yillik, maksimal va minimal suv sarfi buyicha uzok muddatli kuzatish katoriga ega bulganda, katorning bir kator a'zosini empirik ta'minlanganligining yoki formula bilan xisoblash va ta'minlanganlik egri chizigi bevosita kuzatishlardan tashkari suv sarfining boshka kiymatlarini aniklashga imkon bermaydi, chunki anik ekspluatatsiya kilish yuli xali xal bulmagan va katta xatolarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun gidrologiyada ta'minlanganlikni egri chizigi kstropolyutsiyasi kilishda bir kator namunali /tipovoy/ matematik taksimlanish egri chiziklari tadbik etiladi. Bundan tashkari ta'minlanlikning empirik egri chizigini tugrilashdaxar xil turlardan foydalanish uni ekstropolyutsiya kilishni osonlashtiradi.

6.3. Taksimlanish egri chiziklari va ularning parametrlari.

Taksimlanish egri chiziklari tasodifiy mikdorlarning grafik tasviridir. Kandaydir uzgaruvchan mikdor x , misol uchun N davrdagi yillar uchun yillik okim buyicha kuzatishlar mavjud deb faraz kilamiz.

$$\text{Bu ma'lumotlarni nisbiy mikdorda:} \quad K = \frac{x_i}{x} \quad (31)$$


$/x$ – katorning urtacha arifmetik kiymati/ ifodalaymiz va ularni kalendar buyicha birin-ketin emas, balki kamayish tartibida joylashgan statistik kator kurinishida baxolaymiz. Agar shunday katordagi okim mikdorini bir xil oraliklarga bulib chiksak, okim kiymatining kaytarilish chastotasi /soni// $n_1, n_2 \dots n_i / n_i$ aniklasak, kaytarilish chastotasi yoki extimollikning taksimlanish pogonalik grafigini tuzish mumkin. Bunday grafik matematik statistikada taksimlanish gistogrammasi deb ataladi. Kator a'zosining kiymati kanchalik urtacha mikdorga yakin bulsa, uning shunchalik anik kaytarilishi kuprok buladi va aksincha urtacha mikdordan chapga va ungga uzoklashgan sari oralikga kamrok kator a'zolari tushadi va ularning kaytarilishi yoki chastotasi kamayadi. Bu xol katta sonlar konuniga mos bulib, bunda ushbu katordagi kandaydir kiymat urtacha mikdordan kanchalik chetlansa, bunday mikdorning uchratish extimoli shunchalik kamayadi. (9-rasm)



9-rasm. Taksimlanish gistogrammasi.

Agarda kator aʼzolari cheksiz oshsa, va oralik kichik miqdorga kamaysa, taksimlanish gistogrammasi sillik egri chizikka yoki extimollikning taksimlanish egri chizigiga aylanadi.

Taksimlanish egri chizigi tasodifiy miqdorlarning taksimlanish konuni tugrisida yakkol tasavvur beradi: u kurilayotgan katordagi xar bir tasodifiy miqdorning paydo bulishi extimolini tasvirlaydi.



10-rasm. Taksimlanish egri chizigi: 1-taksimlanish markazi; 2-mediana; 3-moda.

Taksimlanish egri chizigining abtsissa ukida bir-biridan ajralib turadigan uchta nukta bor:

1-nukta – taksimlanish markazi, u katorining urtacha arifmetik mikdoriga teng /shu nukta orkali utgan ordinata markaziy/ deb ataladi.

2-nukta – mediana, u katorni teng ikkiga buladi.

3-nukta – moda - eng katta kaytarilish a‘zolarining mikdori. Bu nukta orkali utgan ordinata modal deb ataladi.

Taksimlanish egri chiziklari simmetrik va asimmetrik buladi. Agarda markaziy, mediana va modal ordinatalari uzaro bir xil bulib simmetrik ukni tashkil etsa, bunday taksimlanish egri chizigi simmetrik deyiladi. Asimmetrik egri chiziklarda esa, bu ordinatalar bir-biriga tugri kelmaydi. Markaziy va modal ordinata orasidagi masofa asimmetriya radiusi d deb ataladi va u asimmetriya egri chizikning darajasini kursatadi.

Gidrologik xodisalar odatda asimmetrik taksimlanish bilan ifodalanadi: yillik, maksimal minimal okim va uning boshka tavsiflari musbat assimetriyaga ega /moda va mediana/ markaziy ordinatadan chapda joylashgan. (10-rasm)

Taksimlanishning asosiy parametrlariga: katorning urtacha arifmetik mikdori, tarkokligi va uzgaruvchanlik tavsiflari /dispersiya, urtacha kvadratik ogishi va b / va simmetriyalik /assimetriyalik/ tavsiflari kiradi. Urtacha arifmetik kiymat kuyidagi formula bilan aniklanadi.

$$\bar{x} = \frac{\sum_{i=1}^n x_i}{n} \quad (32)$$

bu yerda: n – kator a‘zolarining soni.

Statistik katorning uzgaruvchanligi xar turli tavsiflar bilan baxolanadi. Ulardan eng oddiysi – amplituda.

$$A = X_{\max} - X_{\min}$$

Uzgaruvchanlik darajasini belgilovchi tavsif sifatida urtacha kvadratni ogishdan foydalaniladi va ushbu formula bilan topiladi.

$$\delta = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2}{n}}$$

Eng kup ishlatiladigan tavsif – urtacha kvadratik ogish bulib, u statistik katorning urtacha kiymatiga nisbatan tarkokligini ifodalaydi.

Butunlay boshka – boshka gidrologik tavsiflardan tuzilgan ikki va undan kup katorlarning uzgaruvchanligi darajasini takkoshlash uchun, ularning xar birining uzgaruvchanlik koeffitsienti topiladi.

Urtacha kvadratik ogishning urtacha arifmetik mikdorga nisbati uzgaruvchanlik koeffitsienti deb ataladi.

$$c_v = \delta_x / \bar{x} \quad (34)$$

formuladagi $\bar{x}/x$ qiymatni K bilan almashtirsak uzgaruvchanlik koeffitsientini xosil kilamiz.

$$c_v = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (K-1)^2}{n}} \quad (35)$$

yoki n (30 bulganda

$$c_v = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (K-1)^2}{n-1}}$$

uzgaruvchanlik koeffitsienti statistik katorining ulchovsiz tavsifidir.

Katorning simmetriklik /asimmetriklik/ tavsifi sifatida asimmetrik koeffitsienti ishlatiladi. Uni topish uchun kubdagi urtacha ogish miqdorini kubdagi urtacha kvadratlik ogishga nisbati olinadi. Bunday nisbat asimmetriya koeffitsienti deb ataladi.

$$c_s = \frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^3}{n \sigma_x^3} \quad (37)$$

ёки улчовсиз катор учун

$$c_s = \frac{\sum_{i=1}^n (K-1)^3}{(n-1) c_v^3} \quad (38)$$

6.4. Ta'minlanganlikning nazariy egri chiziklari.

Taksimotlanish gistogrammasini boshka kurinishda tasavvur etamiz. Abtsissa ukida takrorlanib turishlikni, ordinata ukida esa modul koeffitsientini K ni tushiramiz.

Katorning eng katta a'zolaridan boshlab, ajratilgan oralik ΔK ichida urganilayotgan miqdorning paydo bulish xolatlari sonini ketma-ket jamlaymiz va bu yigindilarni umumiy xolatlar soniga nisbatan kancha foiz ekanligini topamiz. Shunday kilib kator a'zolariga K ga tegishli ta'minlanganlik P ni topamiz. Agar bu nuktalar grafikda abtsissa ukida ta'minlanganlik P , ordinata uki esa K miqdorlarini tushirsak, unda bu nuktalar buyicha utkazilgan sillik egri chizik yillik okim miqdorining ta'minlanganlik egri chizigini tashkil etadi.

SHunday kilib tuzilgan gistogrammadan foydalanib, ajratilgan oralik ichida urganilayotgan miqdorning paydo bulish chastotasini birin-ketin jamlash yuli bilan biz ta'minlanganlik egri chizigini xosil kilamiz.

Ta'minlanganlikni xosil kilish uchun gistogrammani egri chizikka aylantirish jarayonida cheksiz kichik miqdorlarni jamlaymiz, ya'ni taksimlanish egri chizigini integrallaymiz. Taksimlanish egri chizigining integralini

taʼminlanganlikning nazariy egri chizigi deyiladi. Taksimot chizigi tushunchasini berganimizda biz okim buyicha kuzatishlar katta katorga ega deb xisoblagandik. Amalda esa, gidrologik mikdorlarning taksimlanishi egri chiziklarini tuzish kuzatish maʼlumotlari yetishmaganligi sababli, ancha murakkablashadi.

Kuprok taksimlanish egri chizigining yuqori va pastki kislmlari eng kam yoritilib, ular asosan okimning eng kichik va eng katta mikdorlariga tugri keladi.

Gidrologik mikdorlarning taksimlanish egri chizigi tenglamasini tuzish yuli anik nazariy asoslanmagan. Shuning uchun gidrologik mikdorlarning taʼminlanganlik nazariy egri chizigini, gidrologik tavsiflarning uzgaruvchanligini tula aks ettiruvchi matematik taksimlanish egri chiziklari asosida tuziladi.

Gidrologiyada taksimlanishning binomial egri chizigi /Pirsonning III xil egri chiziklari/ va S.N.Kritskiy va M.F.Menkel ishlab chikkan uch parametrlil gamma - taksimlanish egri chiziklaridan keng foydalaniladi.

Gidrologik xisoblarda binomial assimmetrik egri chizigini 1930 yili D.L.Sokolovskiy tadbik etgan.

Taksimlanishning binomial egri chizigini kuyidagi uchta mikdor bilan tula aniklanadi: X , C_V va C_S . Bu mikdorlar taʼminlanganlik nazariy egri chizigining parametrlari deb ataladi.

A.Foster 1923 yili taxminiy jadvallar tuzdi. Bu jadvallardan foydalanib taʼminlanganlik egri chiziklari ordinatalarini X , C_V va C_S parametrlariga boglik xolda aniklasa buladi.

A.Foster tuzgan jadvalga keyinchalik bizning mamlakatimizda S.I.Ribkin va undan keyin boshka mualliflar tomonidan aniklik kiritilgan.

A.Foster formulasi buyicha taʼminlanganlik egri chizigining ordinatasi:

$$K_X = \Phi C_V + 1 \text{ га тең} \quad (39)$$

Xar turli taʼminlanganlik R ni belgilab /1;5,10,20,50/ foiz va undan yuqori /40,/ tenglamadan ordinata K ni xisoblaymiz va taʼminlanganlikning nazariy egri chizigini tuzamiz.

SHunday kilib, bevosita kuzatish maʼlumotlari asosida uzgaruvchanlik koeffitsienti C_V va assimmetriya koeffitsienti C_S ni xisoblab chikib, binomial egri chizigi integrali tushirilgan jadvaldan foydalanib, bk tenglamalar asosida sillik egri chizik utkazib, taʼminlanganlikning kerakli chegaralarigacha ekstropolyutsiya kilinadi.

Yuqorida kurilgan taʼminlanganlikning binomial assimmetriya egri chizigi kup vaktgacha amalda keng foydalanib, okimning kup uzgarib / tebranib/ turishini/ yillik, maksimal, minimal va b./ xisoblashda yagona usul bulib keladi. Ammo assimmetrik binomial egri chizigi bir kator kamchiliklarga ega. Bularga SV ning pastki kiymatlarining chegaralangani va taksimlanish egri chizigining yuqori kismining chegarasiz ekanligidir.

Bundan tashkari, $C_S = 2C_V$ xollari uchun okimni xisoblashda binomial Egri chizigini foydalanib bulmaydi. Shu munosabat bilan kupgina tadbikotlarda gidrologik xodisalarni taxlil kilishda taksimlanishning boshka chizmalarini tadbik etdilar.

S.N.Kritskiy va M.F.Menkel taklif etgan taksimlanish chizmasi eng umumiy xisoblandi. S.N.Kritskiy va M.F.Menkel/1946y/ taksimlanish egri chiziklarining butun bir dastasini tuzdilar. Ular tenglamasi uchta parametr x , c_v , c_s bilan aniklanadi va bu bilan binomial egri chizikdan fark kiladi. $c_s=2c_v$ da esa bu binominal asimmetrik egri chizik bilan tenglashadi.

S.N.Kritskiy va M.F.Menkel tayyorlagan taksimlanish egri chiziklarini integrallash natijasida maxsus jadvallar tuzgan. Ular asosida ta'minlanganlikning egri chiziklari ordinatasi K_x ni C_v , C_s/C_v va ta'minlanganlik P buyicha topish imkoni beradi.

S.N.Kritskiy uch parametrli gamma – taksimlanish egri chiziklari okimning kupgina tavsifini keng miqyosda aniklashda boshka taksimlanish egri chiziklariga nisbatan kuprok ishlatiladi.

6.5. Ta'minlanganlikning nazariy egri chizigini tekshirish. Extimollik turi

Ta'minlanganlikning nazariy egri chizigini albatta bevosita kuzatish ma'lumotlari bilan takkoshlash kerak. Buning uchun xar bir kator a'zosining empirik ta'minlanganligi /29/ yoki /28/ formula yordamida xisoblanadi. Agar ta'minlanganlikning nazariy chizigi grafigiga empirik ta'minlanganlik nuktalarini tushirilsa va ular bir-biriga yakin natijalar bersa, demak u xakikatga tugri keladi. Empirik nuktalari bilan ta'minlanganlikning nazariy egri chiziklarning bir-biriga tugri kelmasligi egri chizik parametrlarining notugri topilganidan va birinchi navbatda asimmetriya koeffitsienti C_s ning noanik xisoblaganidan darak beradi. Bunday paytlarda C_s va C_v urtasidagi munosabatni uzgartirib, ta'minlanganlikning nazariy egri chizigini boshkatdan tuzish kerak.

Oddiy koordinatalarda tuzilgan okimning ta'minlanganlik egri chizigi odatda yuqori va pastki kismlarida katta egrilikka ega. Bu xol gidrologik xisoblarda /katta axamiyatga ega bulgan/ egri chizikdan foydalanish va egri chizikning ikki chekasiga ekstropolyutsiya kilishni kiyinlashtiradi, shuning uchun ta'minlanganlik egri chizigini tuzishda maxsus ta'minlanganlik turidan foydalaniladi.

Ta'minlanganlik turining asosiy xususiyati shundaki, unda asimmetriya koeffitsienti $C_s = 0$ bulganda ta'minlanganlik egri chizigi tugri chizik xolatiga kiradi. C_s ning boshka kiymatlarida esa, ta'minlanganlik turida tuzilgan ta'minlanganlik egri chiziklari sillik chizik kurinishida buladi. Ularning ogishligi asimmetriya koeffitsientining kupayishi bilan oshadi.

Ta'minlanganlik turi oddiy va logarifmik vertikal shkalali bulishi mumkin. Birinchi xoldagi extimollik turi, yillik suv mikdoriga xos bulib, u tur urtamiyona asimmetriyaga $C_s \leq 2C_v$ ega bulgan egri chiziklar uchun, ikkinchi xili esa, katta mikdordagi asimmetriyaga $C_s \leq 2C_v$ ega bulgan egri chiziklar uchun ishlatiladi.

Uzok muddatli kuzatish katori bulganda ta'minlanganlik egri chizigini /29/ va /28/ formuladan foydalanib topish mumkin. Extimollik turiga xosil bulgan nuktalar tushiriladi va ular ustidan yoki ular orasidan egri chizik utkaziladi. Xosil bulgan egri chizik ta'minlanganlikning eng kichik va eng katta kiymatlarga ega bulgan kismigacha ekstropolyutsiya kilinadi.

Extimollik turini bundan tashkari yana assimetriya koeffitsientini tanlash yuli bilan aniklashda ishlatasa buladi.

6.6. Ta'minlanganlik nazariy egri chizigining parametrlarini xisoblash va ularning anikligi.

Ta'minlanganlik egri chizigining asosiy parametrlari – urtacha arifmetik kiymat, uzgaruvchanlik koeffitsienti va assimetriya koeffitsientini momentlar, xakikatga uxshashlik /pravdopodobiya/ va grafoanalitik usullari bilan aniklasa buladi.

Momentlar usuliga muvofik:

$$\bar{x} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n x_i = M_{0,1} \quad (40)$$

$$c_v = \frac{\sigma_x}{\bar{x}} = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2}{n}} = \frac{\sqrt{M_2}}{M_{0,1}} \quad (41)$$

$$c_s = \frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^3}{n \cdot \sigma_x^3} = \frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^3}{n \cdot c_v^3} = \frac{M_3}{M_2^{3/2}} \quad (42)$$

Bu parametrlarni odatda biz ega bulmagan katta katorning bir kismini tashkil etgan gidrologik tavsiflarni kuzatish ma'lumotlarining kichik katori katori buyicha xisoblanadi. Shuning uchun xar turli uzunlikdagi katorlarda bizning kiziktirgan parametrlar kandy aniklikda topilishi biz uchun axamiyatlidir.

Matematik statistikada yuqorida keltirilgan formulalar buyicha /41,42,43/ parametrlarni xisoblaganda yul kuyiladigan xatolarni aniklash formulalari topilgan. Urtacha arifmetik kiymatning urtacha nisbiy kvadratlik xatosi /foizda/ teng:

$$E_x = \pm \frac{C_v}{\sqrt{n}} \cdot 100 \quad (43)$$

Urtacha arifmetik kiymatning topishda yul kuyilgan xato fakatgina katorning uzunligiga emas, balki shu katorning uzgaruvchanligiga xam boglik.

Uzgaruvchanlik koeffitsientining urtacha nisbiy kvadratlik xatosi /foizda/ kuyidagi formula bilan topiladi

$$E_{c_v} = \pm$$

Assimetriya koeffitsientining nisbiy xatosi /foizda/ kuyidagi formula yordamida xisoblasa buladi:

$$E_{c_s} = \pm$$

Yuqorida formula buyicha xisoblashlar shuni kursatadiki, assimetriya koeffitsientining ishonchli kiymatini aniklash uchun uzunligi 100 yildan ortik kator

kerak ekan. Bu kadar uchun kator fakat ayrim daryolar uchun bor. Shuning uchun formulaning /43/ amaliy ishlarda kullash ancha chegaralangan. Gidrologik xisoblarda parametr C_s kiyosiy yullar bilan topiladi.

XX asrning 20-30 yillarda ingliz matematigi R.Fisher xakikatga kuprok yakinlik usulini taklif etdi. Gidrologik xisoblarda bu usul fakatgina keyingi yillarda S.N.Kritskiy va M.F.Menkelning kayta ishlashidan sung foydalana boshlandi.

